

**YADRO FIZIKASI INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.02/30.12.2019.FM/T.33.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**YADRO FIZIKASI INSTITUTI
“RADIOPREPARAT” DAVLAT KORXONASI**

XAJIYEV LAZIZBEK OZODOVICH

**YOD-125, YOD-131, LUTETSIY-177 ASOSIDAGI
RADIOFARMATSEVTIK DORI VOSITALARINI NAZORAT QILISH
USHLARINI ISHLAB CHIQISH VA ULARNI VALIDATSIYA QILISH**

01.04.01 – Eksperimental fizikaning asboblari va usullari

**texnika fanlari bo'yich falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

**Texnika fanlari bo'yich falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата
диссертации доктора философии ((PhD) по техническим наукам**

**Content of the dissertation abstract
the doctor of philosophy (PhD) on technical sciences**

Xajiyev Lazizbek Ozodovich

Yod-125, yod-131, lutetsiy-177 asosidagi radiofarmatsevtik dori vositalarini nazorat qilish uslublarini ishlab chiqish va ularni validatsiya qilish

3

Xajiev Lazizbek Ozodovich

Разработка методик мониторинга радиофармацевтических препаратов на основе йода-125, йода-131, лютеция-177 и их валидация.....

25

Hajiev Lazizbek Ozodovich

Development of methods for monitoring the quality of radiopharmaceuticals based on iodine-125, iodine-131, lutetium-177 and their validation

39

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works

42

**YADRO FIZIKASI INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.02/30.12.2019.FM/T.33.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**YADRO FIZIKASI INSTITUTI
“RADIOPREPARAT” DAVLAT KORXONASI**

XAJIYEV LAZIZBEK OZODOVICH

**YOD-125, YOD-131, LUTETSIY-177 ASOSIDAGI
RADIOFARMATSEVTIK DORI VOSITALARINI NAZORAT QILISH
USLUBLARINI ISHLAB CHIQISH VA ULARNI VALIDATSIYA QILISH**

01.04.01 – Eksperimental fizikaning asboblari va usullari

**texnika fanlari bo‘yich falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/T3553 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Yadro fizikasi instituti qoshidagi "Radiopreparat" davlat korxonasida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.samdu.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Sadikov Ilxam Ismailovich
texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Xujayev Saydaxmad
texnika fanlari doktori, katta ilmiy xodim

Babayev Baxrom Nurullayevich
kimyo fanlari doktori, professor

Etakchi tashkilot:

**O'zR FA akademik A.S.Sodiqov
nomidagi Bioorganik kimyo instituti**

Dissertatsiya himoyasi Yadro fizikasi instituti huzuridagi DSc.02/30.12.2019.FM/T.33.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil "_____" soat _____ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100214, Toshkent shahri, Ulug'bek qo'rg'oni, Yadro fizikasi instituti. Tel.: (+998) 71-289-31-41; faks: (+99871) 289-36-65; ye-mail: info@inp.uz).

Dissertatsiya bilan Yadro fizikasi institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100214, Toshkent shahri, Ulug'bek qo'rg'oni, Yadro fizikasi instituti. Tel.: (+99871) 289-31-19.

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil "_____" da tarqatildi.
(2023-yil "_____" dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

M.Yu.Tashmetov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi, f.-m.f.d., professor

O.R.Tojiboyev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash ilmiy kotibi, f.-m.f. PhD,
katta ilmiy xodim

E.M.Tursunov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi
f.-m.f.d, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Hozirgi kunda butun dunyoda tozaligi yuqori radioaktiv preparatlar ishlab chiqarish va ularni yadro tibbiyotiga tadbiq qilishga katta e'tibor berilmoqda. Zamonaviy fan va texnikaning rivojlanishi ko'p jihatdan yuqori toza radioaktiv preparatlarni olish va sifatini o'rganishning eng so'ngi yutuqlari bilan bog'liq. Shuning uchun bunday radioaktiv preparatlarni olish va ularning sifatini nazorat qilish usullari doimiy takomillashtirishni talab qiladi. Hozirgi vaqtda turli kasalliklarni, xususan, onkologik kasalliklar diagnostikasini radioizotoplarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Zamonaviy yadro tibbiyoti turli diagnostika va terapevtik usullar bilan ajralib turadi, bu shifokorga radiofarmatsevtik dori vositasi (RFD) yordamida ma'lum bir organning holatiga va kasallanish darajasiga aniq tashxis qo'yish imkoniyatini beradi. Buni jahon yadro tibbiyotida radiofarmatsevtik dori vositalarini qo'llashning statistik yillik o'sishini 10-15 % bilan ko'rsatish mumkin. Bugungi kunda radiofarmatsevtik vositalar bozori yiliga 20 milliard AQSh dollaridan ortiqni tashkil etadi.

Bugungi kunda ruvojlangan mamlakatlarning klinikalariga murojaat qilayotgan bemorlarning har to'rtinchisi radioaktiv nuklidlar yordamida tahlil qilish va davolashga yo'naltiriladi. Shunday muhim va dolzarb radionuklidlar qatoriga ^{125}I , ^{131}I va ^{177}Lu radionuklidlari ham kiradi. Ushbu radionuklidlar asosida olingan radiofarmatsevtik dori vositalar prostata bezi, suyak raki va qalqonsimon bezning turli kasalliklarini davolashda qo'llaniladi. Bu radionuklidlar onkologik kasalliklar terapiyasida qo'llash uchun qulay va istiqbolli hisoblanadi. Radiofarmatsevtik dori vositalarining radionuklid va radiokimyoviy tozaligini davolash samaradorligini belgilaydi hamda bemorga zararli ta'sirni kamaytiradi. Shuningdek, radiofarmatsevtik dori vositalaridan foydalanishning muhim omili radionuklidning o'ziga xos faolligi bo'lib, davolash samaradorligi va yuqori diagnostik aniqlikni olish uchun ishlatiladigan radionuklid miqdorini belgilaydi. Shuning uchun ham ushbu radionuklidlar asosida olingan radiofarmatsevtik dori vositalarining sifatini nazorat qilish usullarini ishlab chiqish va radionuklidlarning o'ziga xos faolligini aniqlash dolzarb muammo hisoblanadi.

O'zbekiston radioaktiv preparatlar ishlab chiqarish bo'yicha dunyoda yetakchi o'rinlardan birini egallaydi. Mamlakatimizda bir qancha noyob va keng qo'llaniladigan 10 dan ortiq radionuklidlar asosida 60 ga yaqin radiofarmatsevtik preparatlar ishlab chiqariladi, shular jumlasiga yod-125, yod-131 va lutetsiy-177 kiradi. Ushbu radionuklidlar asosida tayyorlangan preparatlar dunyoning 14 davlatiga eksport qilinib, ularning tozaligi jihatidan sifatiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu munosabat bilan hosil bo'lgan radionuklidlarning tozaligini analitik nazorat qilish va radioaktiv preparatlar tarkibini o'ta sezgir analitik usullardan foydalangan holda nazorat qilish dolzarb vazifa sanaladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2017-yil 7-noyabrdagi PF-5229-sonli "Farmatsevtika tarmog'ini

boshqarish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonlari, 2019-yil 21-noyabrdagi PQ-4526-sonli "Yadro fizikasi instituti ilmiy tadqiqot faoliyatini qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining VII. "Kimyo, kimyoviy texnologiyalar va nanotexnologiyalar" ustivor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Radiofarmatsevtik dori vositalarini nazorat qilish uslublarini ishlab chiqish bo'yicha ko'p olimlar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilmoqda, masalan, misrlik (A.E.Mohammed, S.F.Amal, T.I.Ismail, O.S.Mona, F.I.Magda), rossiyalik (I.V.Seliщev, Yu.P.Savochkin, M.I.Mel'nik, T.F.Trepalina), eronlik (H.Yousefnia, A.R.Jalilian, F.Abbasi-Davani), amerikalik (S.Zolghadri, A.Bahrami-Samani, M.Ghannadi-Maragheh, M.Mazidi), o'zbekistonlik (S.Xujayev, S.A.Baytelesov) va boshqa mutaxassislar.

Ular tomonidan yod-125, yod-131 va lutetsiy-177 asosida olingan radiofarmatsevtik dori vositalarining radiokimyoviy tozaligi (RKT) hamda radiokimyoviy aralashmalarining tarkibini yupqa qatlam xromatografiyasi, qog'oz xromatografiyasi va elektroforez yordamida aniqlash usullari ishlab chiqilgan. Biroq bu ishlarda mualliflar, asosan, RKT ni aniqlaganlar, dori vositalarining o'ziga xos faolligini o'lchashga va radionuklidlarning organik moddalar bilan bog'lanishiga deyarli e'tibor berilmagan.

Ishonchliligi, tezkorligi va foydalanish qulayligiga qaramay, ushbu usullar bilan olingan natijalar me'yoriy hujjatlar talablariga javob bermaydi. Ular past aniqlik va sezgirlik bilan ajralib turadi. Shuning uchun mobil fazalar sifatida yanada ilg'or va istiqbolli reagentlardan foydalangan holda ularning aniqligi hamda sezgirligini oshirish mumkin bo'lgan yangi uslublarni ishlab chiqish kerak.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ilmiy tadqiqot muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti "Radiopreparat" davlat korxonasi "2017-2021-yillar davrida yangi texnologiyalarni yaratish va mavjud texnologiyalarni takomillashtirish" ilmiy tadqiqot dasturining 2017-yil 14-martdagi 04/17-sonli "Yod-125 va Yod-131 radionuklidlari asosidagi substansiyalarning radiokimyoviy tozaligi va solishtirma radioaktivligini aniqlash uslublarini ishlab chiqish", 2018-yil 16-maydagi 06/18-sonli "Lutetsiy-177 radionuklidi asosidagi substansiyaning radiokimyoviy tozaligi va solishtirma radioaktivligini aniqlash uslublarini ishlab chiqish", 2021-yil 7-sentabrdagi 09/21-sonli "Tashuvchisiz yod-131 tutgan natriy yodid eritmasi", "Tashuvchisiz yod-125 tutgan natriy yodid eritmasi", "Tashuvchisiz lutetsiy-177 tutgan lutetsiy xlorid ($^{177}\text{LuCl}_3$)" substansiyalarining radiokimyoviy tozaligi va solishtirma radioaktivligini aniqlash uslublarining validatsiyasi" texnik topshiriqlari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi yod-125, yod-131 va lutetsiy-177 asosidagi radiofarmatsevtik dori vositalarining radiokimyoviy tozaligi hamda solishtirma radioaktivligini aniqlashning ekspress, yuqori sezgir va ishonchli uslublarini ishlab chiqish hamda validatsiya qilishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

yod-125, yod-131 va lutetsiy-177 asosidagi radiofarmatsevtik dori vositalarining tozaligini nazorat qilishning mavjud usullarini tahlil qilish;

^{125}I , ^{131}I va ^{177}Lu radionuklidlarini analitik nazorat qilishning sezgir hamda iqtisodiy kam xarajat usullarini tanlash;

yod-125, yod-131 va lutetsiy-177 asosidagi radiofarmatsevtik dori vositalarining radiokimyoviy tozaligini elektroforez, yupqa qatlam va qog'oz xromatografiya usullari yordamida aniqlash uslublarini ishlab chiqish;

preparatlardagi yod-125, yod-131 va lutetsiy-177 radionuklidlarining mikromiqdorini spektrofotometrik usulda aniqlash;

lutetsiy-177 radionuklidning o'ziga xos faolligini aniqlash uslubini ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyektini yod-125, yod-131 va lutetsiy-177 radionuklidlari tashkil etadi.

Tadqiqotning predmeti bo'lib ^{125}I , ^{131}I va ^{177}Lu radionuklidlarning radiokimyoviy tozaligi va solishtirma radioaktivligi hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari: eksperimental yadro fizikasi, radiokimyo va yadro analitikasi usullari, jumladan, yupqa qatlam xromatografiyasi, qog'oz xromatografiyasi, elektroforez va ultrabinafsha spektrofotometriya usullari.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

fosfatli bufer va natriy karbonat eritmasidan foydalangan holda natriy yodid shaklidagi tahlil vaqtini 4-6 soatdan 40-50 minutgacha qisqartirish hamda tozalikni aniqlash darajasini 99 %dan 99,5 %gacha oshirish imkonini beruvchi yod-125 radionuklidining radiokimyoviy tozaligini elektroforetik aniqlash uslubini ishlab chiqilgan;

birinchi marta yonaki reaksiyalar mahsulotlarining salbiy ta'sirini yo'qotish hamda yod-125 va yod-131 radionuklidlarining solishtirma radioaktivligini mos ravishda 2,2 % hamda 2,7 % xatolik bilan aniqlash imkonini beruvchi uslublar ishlab chiqarilgan;

qog'oz xromatografiyasi yordamida mahsulotlarning tozaligini aniqlashning yuqori chegarasini 92,5 %dan 99,2 %gacha oshirishga imkon beruvchi natriy yodid ko'rinishidagi yod-131 radionuklidining radiokimyoviy tozaligini aniqlash tartibi ishlab chiqilgan;

birinchi marta yupqa qatlam va qog'oz xromatografiyasi yordamida preparatning radiokimyoviy tozaligini 0,048 % nisbiy xatolik hamda 0,09 % umumiy noaniqlik bilan 99,7 %gacha aniqlash imkonini beruvchi lutetsiy xlorid ko'rinishidagi lutetsiy-177 ning radiokimyoviy tozaligini aniqlash uslublari ishlab chiqarilgan;

birinchi marta Arsenazo III yordamida lutetsiy-177 radionuklidining solishtirma radioaktivligini 3,28 % xatolik bilan aniqlash imkonini beruvchi spektrofotometrik uslub ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

birinchi marta natriy yodid shaklidagi yod-125 radionuklidining tozaligini aniqlash uchun Bolton-Xanter, adrenokortikotropingipotalamus va laktoperoksidaza eritmasi qo'llanilgan hamda elementar yod molekularining ta'sirini yo'qotish, shuningdek, yodid ionining organik makromolekulalar bilan o'zaro bog'lanish darajasini aniqlash imkoniyati ochib berilgan;

radiokimyoviy tozalikni o'lchash noaniqligining instrumental komponentining intervallarni statistik hisoblash tezligiga va radiometrning aniqlik xususiyatlariga bog'liqligi aniqlangan hamda 0,5 %dan kam o'lchov noaniqligiga erishish imkoniyati ko'rsatilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi olingan radionuklidlarning metrologik xususiyatlarini aniqlash bo'yicha barcha ishlab chiqilgan uslublar Texnik jihatdan tartibga solish agentligi huzuridagi "O'zbekiston akkreditatsiya markazi" Davlat unitar korxonasi tomonidan taklif etilgan metodologiya bo'yicha validatsiya qilinganligi bilan tasdiqlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Natijalarning ilmiy ahamiyati radiofarmatsevtik dori vositalarini o'rganish va sifatini nazorat qilish uslublarini, metrologik tavsiflarini takomillashtirishdan iborat bo'lib, olingan natijalar ularning radiokimyoviy tozaligi va solishtirma radioaktivligini tez, ishonchli va yuqori sezuvchanlik bilan aniqlash imkonini beradi.

Natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, radiofarmatsevtik preparatlarning sifatini analitik nazorat qilishning ishlab chiqilgan usublari yod-125, yod-131, lutetsiy-177 asosidagi radiofarmatsevtik dori vositalarining sifatini oshirish, tozaligini aniqlash darajasini oshirish va yangi radiofarmatsevtik dori vositalarini ishlab chiqarishda foydalaniladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Radiofarmatsevtika vositalarining sifatini nazorat qilish uslublarini ishlab chiqish bo'yicha olingan asosiy natijalar "Radiopreparat" davlat korxonasida yod-125, yod-131 va lutetsiy-177 radionuklidlari asosidagi radiofarmatsevtik preparatlar hamda substansiyalar ishlab chiqarishga joriy etilgan ("Radiopreparat" davlat korxonasining 2023-yil 1-martdagi dalolatnomasi asosidagi O'zR Fanlar akademiyasining 2023-yilning 7-iyuldagi №2/1255-1450-sonli xati), xususan:

natriy yodid shaklidagi yod-125 radionuklidining radiokimyoviy tozaligini fosfat bufer va natriy karbonat eritmalaridan foydalangan holda elektroforetik aniqlash uslubi;

yod-125 va yod-131 radionuklidlarining solishtirma radioaktivligini aniqlashning spektrofotometrik uslubi;

natriy yodid shaklidagi yod-131 radionuklidining radiokimyoviy tozaligini aniqlashning qog'oz xromatografiya uslubi;

lutetsiy xlorid shaklidagi lutetsiy-177 radionuklidining radiokimyoviy tozaligini aniqlashning yupqa qatlam va qog'oz xromatografiya uslubi;

Arsenazo-III reaktivi yordamida lutetsiy-177 radionuklidining solishtirma radioaktivligini aniqlashning spektrofotometrik uslubi.

Ishlab chiqilgan usullarning qo'llanilishi O'zbekiston Respublikasi klinikalarida foydalanish uchun sifatli va foydalanishga tayyor radiofarmatsevtik dori vositalarini hamda radioaktiv moddalarni ishlab chiqarish va eksportga sotish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprotatsiyasi. Tadqiqot natijalari 6 ta xalqaro va respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma'ruza qilingan hamda muhokamadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 11 ta ilmiy ish chop qilingan, jumladan, 4 ta ilmiy maqola dissertatsiyaning asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda, shulardan, 2 tasi xorijiy ilmiy jurnallarda.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning asosiy hajmi 117 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, ishning maqsadi va vazifalari shakillantirilgani, tadqiqot obyekti, predmeti va usullari tavsiflangan, tadqiqotning O'zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalar taraqqiyoti rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi ko'rsatib berilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari keltirilgan, olingan natijalarning ishonchliligiga asoslangan, nazariy va amaliy ahamiyati yoritilgan, tadqiqot natijalarini joriy etilishi, ishning aprotatsiyasi, nashr etilganligi va dissertatsiyaning tuzilishi to'g'risida qisqacha ma'lumot berilgan.

Dissertatsiyaning **“Yod-125, yod-131 va lutetsiy-177 radionuklidlarining qo'llanilishi hamda ularning sifatini nazorat qilishning zamonaviy usullari”** nomli birinchi bobida yadro tibbiyotida radiofarmatsevtik dori vositalaridan, shu jumladan, yod-125, yod-131 va lutetsiy-177 asosidagi radiofarmatsevtik dori vositalaridan foydalanish sohalari, bu radiofarmatsevtik dori vositalarini olish, tozalash va radiokimyoviy tozaligini nazorat qilish, ularning solishtirma radioaktivligini o'lchash usullari bo'yicha chop etilgan adabiyotlar sharhi keltirilgan. Ushbu bobning hulosa qismida adabiyotlarda keltirilgan natijalarning tahliliga asoslanib kelgusi tadqiqotlarning vazifalari belgilab berilgan.

Tadqiqotning **“Tadqiqotning usullari va obyektlari”** nomli ikkinchi bobida tadqiqot usullari, materiallar, reaktivlar, qurilmalar, o'lchash uskunalarning tavsiflari, tajribalarni bajarish tartibi, uskunalarni tahlilga tayyorlash va o'lchash usullari, shuningdek, o'lchov tartibini tasdiqlash va noaniqliklarni hisoblash formulalari keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Yod-125 va yod-131 radionuklidlari asosidagi radiofarmatsevtik dori vositalarining analitik nazorati”** deb nomlangan uchinchi bobida yod-125 va yod-131 radionuklidlari asosidagi

radiofarmpreparatlarning radiokimyoviy tozaligi, solishtirma radioaktivligi, yuqori makromolekulalar bilan sifatini nazorat qilishning maqbul usullari o'rganildi va validatsiya qilindi.

Radiofarmpreparatlarning radiokimyoviy tozaligi yupqa qatlam xromatografiyasi, qog'oz xromatografiyasi va elektroforez usullari yordamida o'rganildi, natijalar olindi va tahlil etildi.


Yupqa qatlam xromatografiya usullari yordamida yod-125 va yod-131 radionuklidlari asosidagi radiofarmpreparatlarning radiokimyoviy tozaligi o'rganildi.

Bu usulda alyuminiy plastinkadagi Merck Silica Gel-60 va harakatlanuvchi faza sifatida n-butanol:sirka kislotasi:suv (4:1:1) nisbatdagi aralashmasidan foydalanildi. R_f -qiymati $^{125}\text{I}^-$ va $^{125}\text{IO}_3^-$ ionlari uchun mos ravishda 0,9 hamda 0,2 ga teng. Bu usul bilan preparatning radiokimyoviy tozaligi o'rganildi va tahlil qilindi. Olingan o'lchov natijasi 1-rasmda keltirilgan.


1-rasmdan ko'rishimiz mumkinki, $^{125}\text{I}^-$ ionlari xromatogrammaning bir nuqtasida bir tekis harakat qilmasligini tasdiqlaydi, shu usulda o'lchangan preparatning radiokimyoviy tozaligi $92,5 \pm 0,85$ % dan oshmaydi. Shuning uchun, bu usul bilan olingan natijalar me'yoriy hujjat talablariga javob bermaydi, bu esa radiokimyoviy tozalikni aniqlashning boshqa usulini ishlab chiqishni talab qildi.

Ushbu usulda Merck Silica Gel-60 alyuminiyli plastinka va harakatlanuvchi faza sifatida xloroform:metanol:ammoniy gidroksidi (6:3,5:0,5) nisbatdagi aralashmasidan foydalanildi. R_f -qiymati $^{131}\text{I}^-$ va $^{131}\text{IO}_3^-$ ionlari uchun mos ravishda 0,7 va $0,1 \pm 0,02$ ga teng. Bu usul bilan preparatning radiokimyoviy tozaligi o'rganildi va tahlil qilindi. Olingan o'lchov natijasi 2-rasmda keltirilgan.

Tajriba natijalaridan ko'rinib turibdiki, yod-131 li natriy yodid preparatining radiokimyoviy tozaligi $99,2 \pm 0,2$ % ni tashkil etdi (2-rasm).




1-rasm. Yod-125 tutgan natriy yodid preparatining yupqa qatlamli xromatogrammasi



2-rasm. Yod-131 tutgan yodid va yodat ionlarining yupqa qatlamli xromatogrammadagi taqsimlanishi

Qog'oz xromatografiya usullari yordamida yod-125 va yod-131 radionuklidlari asosidagi radiofarmpreparatlarning radiokimyoviy tozaligi o'rganildi.

Qog'oz xromatografiya usuli yordamida radiokimyoviy tozalikni aniqlashda tavsiya etilgan usul bo'yicha ko'tariluvchi qog'oz xromatografiya usuli qo'llanildi. Bu usulda harakatlanmaydigan faza sifatida Whatman №1 xromatografik qog'oz va harakatlanuvchi faza sifatida metanol:suv (3:1) aralashmasi ishlatildi. Xromatografik jarayon yopiq kamerada 4-6 soat davomida amalga oshiriladi. Yod ionlari harakatining R_f -qiymatlari quyidagicha: asosiy yodid $^{125}\text{I}^-$ va nopok yodat $^{125}\text{IO}_3^-$ ionlari uchun mos ravishda 0,8 hamda 0,4. Olingan o'lchov natijalari 3-rasmda keltirilgan.




3-rasm. Yod-125 tutgan natriy yodid preparatining qog'oz xromatografiyasi usuli bilan olingan xromatogrammasi

Tajriba natijalaridan ko'rinib turibdiki, yod-125 tutgan natriy yodid preparatining radiokimyoviy tozaligi $99,0 \pm 0,45$ %ni tashkil qildi, ammo xromatografiya jarayoni kamida 5 soat davom etdi, bu esa foydalanishni cheklovchi omillardan biridir. Shuning uchun radiofarmatsevtik dori vositalarining

radiokimyoviy tozaligini aniqlash uchun tezkor, aniq va takrorlanadigan usullarni ishlab chiqishni talab qildi.

Qog'oz xromatografiya usuli yordamida radiokimyoviy tozalikni aniqlashda tavsiya etilgan uslub bo'yicha ko'tariluvchi qog'oz xromatografiya usuli qo'llanildi. Bu uslubda xarakterlanmaydigan faza sifatida Whatman 3MM xromatografik qog'oz va harakatlanuvchi faza sifatida n-butanol: sirka kislotasi:suv (7,5:3:1,5) aralashmasi ishlatildi. Xromatografik jarayon yopiq kamerada 40 minut davomida amalga oshirildi. Yod ionlari harakatining R_f -qiymatlari quyidagicha: asosiy yodid $^{131}\text{I}^-$ va yonaki yodat $^{131}\text{IO}_3^-$ ionlari uchun mos ravishda $0,7 \pm 0,02$ hamda $0,1 \pm 0,02$ ga teng. Bu usul bilan preparatning radiokimyoviy tozaligi o'rganildi va tahlil qilindi. Olingan o'lchov natijasi 4-rasmda keltirilgan.




4-rasm. Yod-131 tutgan natriy yodid preparatining xromatogrammasi

Tajriba natijalaridan ko'rinib turibdiki, yod-131 tutgan natriy yodid preparatining radiokimyoviy tozaligi $99,2 \pm 0,2$ %ni tashkil etdi.


Elektroforetik aniqlash usuli yordamida yod-125 va yod-131 radionuklidlari asosidagi radiofarmpreparatlarning radiokimyoviy tozaligi o'rganildi.

Xromatografiya jarayoni elektroforezda olib borilganda yodid va yodat ionlarining ajralishi aniq chegaraga ega bo'lib jarayon tez ketadi. Shu sababli yod-125 va yod-131 asosidagi radiofarmpreparatlarining radiokimyoviy tozaligini aniqlashda elektroforez yordamida olib borildi. Bu usulda elektrolitlar sifatida fosfat bufer eritmasi $\text{pH}=7,0 \pm 0,2$ va natriy karbonat eritmasi $\text{pH} = 10,6 \pm 0,2$ ishlatildi. Xromatografik jarayon elektroforez yordamida, "S" markali 15×250 mm o'lchamdagi xromatografik qog'ozda 50 min davomida olib borildi. Yod ionlari harakatining R_f -qiymatlari quyidagicha: asosiy yodid $^{125}\text{I}^-$ va $^{131}\text{I}^-$, yonaki yodat $^{125}\text{IO}_3^-$ va $^{131}\text{IO}_3^-$ ionlari uchun mos ravishda $0,7-0,9$ hamda $0,3-0,4$ ga teng. Olingan elektroforegrammalar 5,6,7-rasmlarda keltirilgan. Elektroforegrammalar X-123 Amtek va Ludlum 2200 uskunalarda o'lchandi hamda natijalar solishtirildi.


Gistogrammalardan ko'rinib turibdiki, elektroforegrammadagi komponentlarning ajralishi aniq, ya'ni $^{125}\text{I}^-$, $^{131}\text{I}^-$ va $^{125}\text{IO}_3^-$, $^{131}\text{IO}_3^-$ cho'qqilari orasidagi masofa kamida 4 sm ni tashkil qildi, natijada, xatolik kamaydi. Shuning uchun bu usulning ishonchliligi yuqori.



5-rasm. Asosiy yodid ion ($^{125}\text{I}^-$) va yonaki yodat ion ($^{125}\text{IO}_3^-$)ning elektroforegramma bo‘ylab taqsimlanishi (fosfat bufer eritmasi pH-7,0±0,2)



6-rasm. Asosiy yodid ion ($^{125}\text{I}^-$) va yonaki yodat ion ($^{125}\text{IO}_3^-$)ning elektroforegramma bo‘ylab taqsimlanishi (natriy karbonat eritmasi pH-10,6±0,2)




7-rasm. Yod-131 li natriy yodid preparatining elektroforegrammasi

Yod-125 va yod-131 asosidagi radiofarmpreparatlarining radiokimyoviy tozaligi 99,5±0,4 % hamda 99,5±0,2 %ni tashkil etdi. Bu usul yod-125 va yod-131 tutgan natriy yodid preparatining radiokimyoviy tozaligini aniqlash uchun tanlab olindi.

Radiofarmatsevtik dori vositasidagi yod-125 radionuklidining solishtirma radioaktivligi spektrofotometrik usul yordamida aniqlandi.

Yod-125 radionuklidining solishtirma radioaktivligini aniqlash uchun MRC UV-11 spektrofotometr va tetraxlor ugleroddan foydalanildi. Tetraxlor uglerodda molekulyar yod eritmasining maksimal yutilish spektrini aniqlash uchun turli

to'liqin uzunliklaridagi optik zichligi o'lchandi. Olingan natijalardan tetraaxlor uglerodda molekulyar yodning maqsimal yutilish spektri 520 nm ekani aniqlandi. Tadqiqot natijalari 8-rasmda keltirilgan. C_I , mkg/l: 1-0; 2-1,2 ($C_{KI} = 1 \cdot 10^{-4}$, $C_{H_2SO_4} = 0,03 M$, $C_{KIO_3} = 0,025 M$, $t_{KOHT} = 5 minut$).



8-rasm. Tetraaxlor uglerod va yod tutgan tetraaxlor uglerodning maksimal yutilish spektri


Graduirovka grafigini tuzish uchun namunalar sig'imi 25 ml bo'lgan oltita raqamlangan o'lchov kolbalarida tayyorlandi. Kaliy yodidning ($KI 1 \cdot 10^{-4}$ моль/л) standart eritmasidan ma'lum miqdori (1-jadval) o'lchov kolbalariga qo'yildi. Faqat oltinchi kolbaga standart eritma qo'shilmaydi (nazorat tajriba). Har bir eritmaning optik zichligi 520 nm to'liqin uzunligida, eni 1 sm bo'lgan kyuvetalarda o'lchandi. 9-rasmda optik zichlikning eritmadagi yod konsentratsiyasiga bog'liqligi ko'rsatilgan.

1-jadval

Kaliy yodidning standart eritmasi optik zichligining yod konsentratsiyasiga bog'liqligi (n=6, P=0,95)

Kolbaning tartib raqami	1	2	3	4	5
KI eritmasining hajmi 1×10^{-4} mol/l, ml	0,05	0,10	0,15	0,20	0,25
Miqdori Γ , $\times 10^{-8}$ mol	0,5	1,0	1,5	2,0	2,5
Optik zichlik, d	0,023 \pm 0,0027	0,045 \pm 0,0024	0,065 \pm 0,0027	0,085 \pm 0,0028	0,105 \pm 0,0014
s^2	6,76 \times 10^{-6}	5,29 \times 10^{-6}	6,76 \times 10^{-6}	7,29 \times 10^{-6}	1,69 \times 10^{-6}
s	0,0026	0,0023	0,0026	0,0027	0,0013
SKO	0,00236				
r	0,9995				
ACh, 10^{-8} mol	0,19				
ATD, 10^{-8} mol	0,5-2,5				
NX	11,7%	5,3%	4,15%	3,3%	1,33%

Eslatma: s^2 -dispersiya, s-standart og'ish, r-korrelyatsiya koeffitsiyenti, ACh- aniqlash chegarasi, ATD – aniqlangan tarkiblar diapazoni, NX – nisbiy xato, $\pm \Delta X$ – cheklovchi xatolar, t (P, f) – St'yudent koeffitsiyenti – 2,57.



9-rasm. Eritma optik zichligining yod konsentratsiyasiga bog‘liqlik grafigi

Yod-125 bilan nishonlangan natriy yodid preparatining tahlil qilingan eritmasining optik zichligini o‘lchash kalibrlash namunalari optik zichligini o‘lchash bilan parallel ravishda amalga oshirildi va yod-125 ning quyidagi formula yordamida hisoblangan solishtirma radioaktivligi 17,02 Ci/mg ekanligi aniqlandi.

$$UA_{I_{125}} = \frac{A_v \times V}{125 \times 1000 \times n} (Ci/mg)$$

bunda A_v – preparat namunaning xajmiy radioaktivligi, Ci/ml;

V – preparat namunaning hajmi, ml; n – namunadagi ^{125}I ning miqdori, mol;

125 – yod-125 atom massasi; 1000 – mikrogramni milligramga o‘tkazish koeffitsiyenti.

$$UA = \frac{1,3 \times 0,01}{125 \times 1000 \times 0,611 \times 10^{-8}} = 17,02 Ci/mg$$

Topilgan solishtirma radioaktivlikning nazariy hisoblangan solishtirma radioaktivlikdan chetlanishi quyidagi formula bo‘yicha aniqlanadi.


$$b = \frac{|\bar{x} - x_{ref}|}{x_{ref}} \cdot 100\% = \frac{|17,02 - 17,4|}{17,4} \cdot 100\% = 2,2 \%$$

\bar{x} – yod-125 solishtirma radioaktivligining o‘rtacha arifmetik qiymati; x_{ref} – yod-125 ning nazariy solishtirma radioaktivligi.

Olingan natijalardan ko‘rishimiz mumkinki nazariy natijadan chetlanish $\pm 2,2 \%$ ni tashkil qildi.

Radiofarmatsevtik dori vositasidagi yod-131 radionuklidining solishtirma radioaktivligi spektrofotometrik usul yordamida aniqlandi.

Yod-131 radionuklidining solishtirma radioaktivligini aniqlash uchun MRC UV-11 spektrofotometr va bromfenol qizilidan foydalanildi. Bromfenol qizilida yod eritmasining maksimal yutilish spektrini aniqlash uchun turli to‘lqin uzunliklarida optik zichlik o‘lchandi. Olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki, bromfenol qizilida yodning maqsimal yutilish spektri 582 nm ga teng bo‘ldi. Tadqiqot natijalari 10-rasmda keltirilgan. Konsentratsiya Γ , mg: 1-0; 2-0,02 ($C_{KI} = 5 \cdot 10^{-5}$, $C_{atsetat\ bufer} = 6,8 \%$, $C_{Br.fenol.qizili} = 0,012 \%$, $t_{KOHT} = 30$ minut).



10-rasm. Bromfenol qizili va bromfenol qizilining yodli eritmasining maqsimal yutilish spektri


Graduirovka grafigini tuzish uchun namunalar sig'imi 25 ml bo'lgan oltita raqamlangan o'lchov kolbalarida tayyorlandi. Kaliy yodidning standart eritmasidan 2-jadvalda ko'rsatilgan miqdorlarda o'lchov kolbalariga qo'shildi (6-kolbadan tashqari). Har bir eritmaning optik zichligi 582 nm to'lqin uzunligida, eni 1 sm bo'lgan kyuvetalarda o'lchandi. 11-rasmda optik zichlikning eritmadagi yod konsentratsiyasiga bog'liqlik natijalari ko'rsatilgan.

2-jadval

Kaliy yodidning standart eritmasi optik zichligining yod konsentratsiyasiga bog'liqligi (n=6, P=0,95)

Kolbaning tartib raqami	1	2	3	4	5
KI eritmasining hajmi 5×10^{-5} mol/l, ml	0,1	0,2	0,4	0,6	0,8
Miqdori Γ , $\times 10^{-8}$ mol	0,5	1,0	2,0	3,0	4,0
Optik zichlik, d	0,048 \pm 0,000663	0,09 \pm 0,0007	0,19 $\pm 0,00147$	0,29 $\pm 0,00148$	0,4 $\pm 0,00148$
s^2	$3,99 \times 10^{-7}$	$4,51 \times 10^{-7}$	$1,96 \times 10^{-6}$	$1,988 \times 10^{-6}$	$1,99 \times 10^{-6}$
s	0,000632	0,000672	0,0014	0,00141	0,001414
SKO	0,00585				
r	0,999				
ACh, 10^{-8} mol	0,193				
ATD, 10^{-8} mol	0,5-4,0				
NX	1,38%	0,8%	0,77%	0,51%	0,37%

Eslatma: s^2 – dispersiya, s – standart og'ish, r – korrelyatsiya koeffitsiyenti, Ach – aniqlash chegarasi, ATD – aniqlangan tarkiblar diapazoni, NX – nisbiy xato, $\pm \Delta X$ – cheklovchi xatolar, t (P, f) – St'yudent koeffitsiyenti – 2,57.



11-rasm. Eritmaning optik zichlikining yod konsentratsiyasiga bog‘liqlik grafigi

Yuqorida keltirilgan graduirovka grafigi yordamida topilgan yod-131 bilan nishonlangan natriy yodid preparatining konsentratsiyasidan foydalanib topilgan solishtirma radioaktivlik 120,2 Ci/mg ni tashkil etdi.

$$b = \frac{|\bar{x} - x_{ref}|}{x_{ref}} \cdot 100\% = \frac{|120,2 - 123,56|}{123,56} \cdot 100\% = 2,7 \%$$

Topilgan solishtirma radioaktivlikning nazariy hisoblangan qiymatdan chetlanishi esa 2,7 % ga teng bo‘ldi.

Yod-125 radionuklidning biologik makromolekulalar, jumladan, Adrenokortikotropin gipotalamus (AKTG), Bolton-Xanter (BX), Laktoperoksidaza (LP)lar bilan bog‘lanishi o‘rganildi.


Bu biologik makromolekulalar asosidagi aralashmalar termostatta 37 °S haroratida 15 minut inkubatsiyaga qo‘yildi. Keyin har bir reaksiya aralashmasi elektroforez uskunasiga joylashtirildi va jarayon 50 daqiqa davom etdi. Olingan elektroforegramma xona haroratida quritildi va 1 sm dan kesib, yod-125 ning makromolekulalari bilan bog‘lanishi γ -radiometrik uskuna bilan 10 soniya davomida o‘lchandi. R_f qiymati: makromolekula bilan bog‘langan ^{125}I ionlari 0,0-0,4; bog‘lanmagan ^{125}I ionlari $0,9 \pm 0,02$.

Bog‘lanish darajasini hisoblash uchun makromolekulaga bog‘langan asosiy ^{125}I ionlariga to‘g‘ri keladigan impulslar cho‘qqisining aralashma shaklidagi (bog‘lanmagan) ^{125}I ioniga nisbati.

$$D_{CB} = \frac{\sum_{pik}}{\sum_{umumiy}} \times 100\%$$

bunda \sum_{pik} – ^{125}I -makromolekulaning impulslar yig‘indisi; \sum_{umumiy} – umumiy impulslar yig‘indisi; D_{CB} – bog‘lanish darajasi.


O‘lchash natijasi 12-rasmda keltirilgan.



12-rasm. ^{125}I -makromolekulaning elektroforegramma uzunligi bo'yicha taqsimlanish gistogrammasi


Shunday qilib, ishlab chiqilgan usullar bo'yicha suyuq elektroforez va gamma-radiometriyadan foydalangan holda turli xil oqsillar hamda peptidlarning makromolekulalarini nishonlashda yod-125 radionuklidining bog'lanish darajasini o'rganish shuni ko'rsatdiki, barcha o'rganilayotgan makromolekulalar uchun bog'lanish darajasi ($n=6$ va $P=0,95$ bo'lganda) 90 %dan ortiq.

Dissertatsiyaning "**Lutetsiy-177 radionuklidi asosidagi radiofarmatsevtik dori vositalarining analitik nazorati**" deb nomlangan to'rtinchi bobida lutetsiy-177 radionuklidi asosidagi radiofarmopreparatning radiokimyoviy tozaligi, solishtirma radioaktivligini nazorat qilishning maqbul usullari o'rganildi va validatsiya qilindi. Radiokimyoviy tozalikni aniqlash uchun Merck Silica Gel-60 alyuminiyli plastinkadagi yupqa qatlamli xromatografiya usuli qo'llanildi. Bunda harakatlanuvchi faza sifatida 0,1 M natriy sitrat eritmasidan foydalanildi. Yupqa qatlamli xromatografiya jarayonining sxemasi 13-rasmda ko'rsatilgan. R_f -qiymati $^{177}\text{Lu}^{3+}$ va kolloid uchun mos ravishda 0,9-1,0 hamda $0\pm 0,02$ ga teng.



13-rasm. Yupqa qatlamli xromatografiya bo'yicha RKT tahlil jarayonining sxemasi

Bu uslub bilan preparatning radiokimyoviy tozaligi o'rganildi va tahlil qilindi. Olingan o'lchov natijasi 14-rasmda keltirilgan.




14-rasm. Lutetsiy-177 li lutetsiy xlorid preparatini olish uchun olingan xromatogrammalar

Olingan natijalar asosida lutetsiy-177 tutgan lutetsiy xlorid preparatining topilgan radiokimyoviy tozaligi $99,7 \pm 0,18$ % ni tashkil etdi.

Lutetsiy-177 radionuklidi asosidagi radiofarmatsevtik preparatning solishtirma radioaktivligi spektrofotometrik usul yordamida aniqlandi.

Lutetsiy-177 radionuklidining solishtirma radioaktivligini aniqlash uchun MRC UV-11 spektrofotometr va Arsenaza III dan foydalanildi. Arsenaza III da lutetsiy eritmasining maksimal yutilish spektrini aniqlash uchun turli to'liq uzunliklarida optik zichlik o'lchandi. Olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, Arsenaza III da lutetsiyning maqsimal yutilish spektri 655 nm ni tashkil etdi. Tadqiqot natijalari 15-rasmda keltirilgan.



15-rasm. Arsenaza III va lutetsiyning Arsenaza III bilan kompleksining maqsimal yutilish spektri. Lu³⁺ ning miqdori, mkg: 1-0; 2-2,5 ($C_{Lu^{3+}} = 0,1$ mg/ml; C_{bufer} eritma c pH – 1,8; $C_{Arsenazo III} = 0,2\%$; $t_{o'Ich} = 10$ minut)

Graduirovka grafisini tuzish hamda eritmalarni tayyorlash yod-125 va yod-131 bilan o'tkazilgan tartibda, qo'shilgan eritmalar va ularning miqdori 3-jadvalda qo'rsatilgan sifat hamda miqdorlarda amalga oshirildi. Har bir eritmaning optik zichligi 655 nm to'liq uzunligida, eni 1 sm bo'lgan kyuvetalarda o'lchandi.

Lutetsiy-177 bilan belgilangan lutetsiy xlorid preparatining tahlil qilingan eritmasining optik zichligini o'lchash graduirovka namunalarining optik zichligini

o'lchash bilan parallel ravishda amalga oshirildi va lutetsiy-177 ning solishtirma radioaktivligi 106,1 Ci/mg ekanligi, uning nazariy solishtirma radioaktivlikdan chetlanishi esa 3,28 % ga teng ekanligi aniqlandi.

Yod-125, yod-131 va lutetsiy-177 asosidagi radiofarmatsevtik dori vositalarining sifatini tekshirish uchun o'tkazilgan barcha uslublar maqbul natijalarni berdi, ya'ni usul uchun takrorlanuvchanlik, to'g'rilik va bir-biriga yaqinlik tasdiqlandi. Ushbu ishlab chiqilgan uslublarning ishonchliligini tasdiqlash maqsadida ular validatsiya qilindi.


3-jadval

Lutetsiy xloridning standart eritmasi optik zichligining lutetsiy konsentratsiyasiga bog'liqligi (n=6, P=0,95)

Kolba nomeri	1	2	3	4	5	6
Standart eritmaning hajmi (c=0,1 mg/ml), mkl	25	50	75	100	125	150
Lutetsiy miqdori, mkg	2,5	5,0	7,5	10,0	12,5	15,0
Optik zichlik, d	0,033 ±0,00044	0,065 ±0,00075	0,096 ±0,00042	0,128 ±0,00075	0,165 ±0,00068	0,196 ±0,0015
s ²	1,76 × 10 ⁻⁷	5,04 × 10 ⁻⁷	1,6 × 10 ⁻⁷	5,155 × 10 ⁻⁷	4,199 × 10 ⁻⁷	1,999 × 10 ⁻⁶
s	0,00042	0,00071	0,0004	0,000718	0,000648	0,001414
SKO	0,004151					
r	0,9996					
ACh, mkg	3,17					
ATD, mkg	2,5-15,0					
NX, %	1,33	1,15	0,44	0,586	0,412	0,765

Eslatma: s² – dispersiya, s – standart og'ish, r – korrelyatsiya koeffitsiyenti, Ach – aniqlash chegarasi, ATD – aniqlangan tarkiblar diapazoni, NX – nisbiy xato, ±ΔX – cheklovchi xatolar, t (P, f) – St'yudent koeffitsiyenti – 2,57.

16-rasmda optik zichlikning eritmadagi lutetsiy konsentratsiyasiga bog'liqlik natijalari asosida tuzilgan graduirovka grafigi ko'rsatilgan.



16-rasm. Eritmaning optik zichligining lutetsiy konsentratsiyasiga bog'liqlik grafigi

Validatsiyada quyidagilar ko‘rib chiqiladi:

Validatsiya bayonnomasi – tekshirish natijalarini aks ettiruvchi hujjat.

Tahlilning aniqligi – bu tahlil natijasining haqiqiy qiymatiga yaqinlik darajasi.

Tahlilning to‘g‘riligi – bu bitta tahlil natijalarining bitta seriyasi asosida olingan o‘rtacha qiymatning haqiqiy qiymatiga yaqinlik darajasi.

Tahlilning to‘g‘riligi – muayyan tartibga solinadigan sharoitlarda olingan mustaqil tahlil natijalarining bir-biriga yaqinlik darajasi.

Tahlilning takrorlanishi – takrorlanuvchanlik sharoitida tahlilning aniqligi (parallel aniqlash natijalari).

Laboratoriya ichidagi tahlil aniqligi – bu usulni qo‘llashda natijalar tarqalishini tashkil etuvchi turli xil omillar (vaqt, tahlillar, reagentlar va boshqalar) bilan bir xil namunalar bo‘yicha bir xil usul yordamida ma‘lum bir laboratoriyada olinadigan natijalar aniqligi.

Selektivlik – analitik uslubning qo‘shimcha komponentlar mavjudligida tahlil qiluvchini bir ma‘noda baholash qobiliyati.

Ishlab chiqilgan uslublarning yuqorida keltirilgan mezonlar asosida o‘tkazilgan validatsiyasi natijalari 4- jadvalda keltirilgan.

4-jadval

Radiofarmatsevtik dori vositalarining radiokimyoviy tozaligini aniqlash uslublarining validatsiyasi tavsiflari

	Natriy yod-125	Natriy yod-131	Lutetsiy-177 xlorid
Selektivlik $t_{\text{recl}} < t_{\text{жальв}} 2,15 (P=0.9545, f=18)$	$t_{\text{recl}} = 1,92$	$t_{\text{recl}} = 1,7$	$t_{\text{recl}} = 1,765$
Payqash chegarasi (PCh)	0,126 Mbk	0,138 Mbk	0,111 Mbk (0,003 МКи)
Eng kam miqdorni aniqlash chegarasi (EKMACh)	0,42 Mbk	0,46 Mbk	0,37 Mbk (0,01 mCi)
Chiziqilik $r \geq 0,99$ r- korrelyatsiya koeffitsenti	$r=0,998$	$r=0,997$	$r=0,998$
To‘g‘rilik (Tochnost) $t_{\text{recl}} < t_{\text{табл}} 2,1 (P=0.95, f=18)$	$t_{\text{recl}} = 1,95$	$t_{\text{recl}} = 1,3$	$t_{\text{recl}} = 1,88$
Ichki laboratoriya aniqligi $G_{\text{m(max)}} < G_{\text{m(tab)}}$	$G_{\text{m(max)}}=0,3472$ $G_{\text{m(tab)}}=0,68$ (n=8; 4 kun)	$G_{\text{m(max)}}=0,335$ $G_{\text{m(tab)}}=0,781$ (n=6; 3 kun)	$G_{\text{m(max)}}=0,3378$ $G_{\text{m(tab)}}=0,781$ (n=6; 3 kun)

Radiokimyoviy tozalikni aniqlash usullari validatsiya bilan baholanadi. Jadvaldan ko‘rishimiz mumkinki, yod-125, yod-131 va lutetsiy-177 asosidagi radiofarmatsevtik dori vositalarining radiokimyoviy tozaligini aniqlash usublari validatsiya qilinib, bunda selektivlik, payqash chegarasi (PCh), eng kam miqdorni aniqlash chegarasi (EKMACh), chiziqilik, to‘g‘rilik, aniqlik va noaniqliklar hisoblab topildi. Tekshirish uchun o‘tkazilgan barcha tahlillar maqbul natijalarni berdi, ya‘ni usul uchun takrorlanuvchanlik, to‘g‘rilik va bir-biriga yaqinlik tasdiqlandi.

XULOSA

“Yod-125, yod-131 va lutetsiy-177 asosidagi radiofarmatsevtik dori vositalarning sifatini nazorat qilish usullarini ishlab chiqish” dissertatsiya mavzusi bo‘yicha olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlari natijalariga ko‘ra quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Yod-125, yod-131 va lutetsiy-177 asosidagi radiofarmatsevtik dori vositalarining tozaligi hamda solishtirma radioaktivligini nazorat qilish usullari bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, ushbu maqsadlar uchun yod radionuklidlari holatida elektroforetik ko‘rsatkichlarda qog‘oz xromatografiya usuli va lutetsiy-177 uchun yupqa qatlamli xromatografiya usuli eng maqul deb topildi.

2. Yod-125 va yod-131 radionuklidlarining radiokimyoviy tozaligini elektroforetik usulda aniqlash tahlil qilish vaqtini 4-6 soatdan 30-40 daqiqaga qisqartirish hamda tozalikni aniqlash darajasini 92,5 % dan 99,5 % ga oshirish imkonini berdi.

3. Radionuklidlarining radiokimyoviy tozaligini aniqlash uchun Bolton-Xanter, adrenokortikotropin gipotalamus va laktoperoksidaza eritmalaridan foydalanish birinchi marta radioaktiv bo‘lmagan yodning mahsulotning tozaligini aniqlashga ta‘sirini istisno qilish hamda organik makromolekulalar bilan o‘zaro bog‘lanish darajasini aniqlash imkonini berdi.

4. Yod radionuklidlarining solishtirma radioaktivligini aniqlash uchun birinchi marta qo‘llanilgan spektrofotometrik usul qo‘shimcha mahsulotlarning ta‘sirini istisno qilish va yod-125 uchun 2,2 % hamda yod-131 uchun 2,7 % chetlanish bilan solishtirma radioaktivlikning nazariy qiymatlarga yaqin natijalarni olishga yordam qildi.

5. Yupqa qatlamli xromatografiya yordamida lutetsiy-177 radionuklidining radiokimyoviy tozaligini aniqlashning ishlab chiqilgan uslubi preparatning radiokimyoviy tozaligini 0,048 % nisbiy xatolik va 0,09 % umumiy noaniqlik bilan 99,7 % gacha aniqlash imkonini berdi.

6. Arsenazo III yordamida lutetsiy-177 radionuklidining solishtirma radioaktivligini aniqlash uchun ishlab chiqilgan spektrofotometrik usul preparatning solishtirma radioaktivligini 106,1 Ci/mg darajasida, 3,28 % chetlanish bilan aniqlashga ko‘maklashdi.

7. Ishlab chiqilgan uslublar “O‘zbekiston akkreditatsiya markazi” DUK tomonidan taklif etilgan uslublar bo‘yicha validatsiyadan o‘tkazildi va yadro tibbiyoti uchun yod-125, yod-131 va lutetsiy-177 radionuklidlari asosidagi radiofarmatsevtik dori vositalarini ishlab chiqarishda qo‘llanildi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.02/30.12.2019.FM/T.33.01 ПО
ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ИНСТИТУТЕ
ЯДЕРНОЙ ФИЗИКИ**

**ИНСТИТУТ ЯДЕРНОЙ ФИЗИКИ
ГОСУДАРСТВЕННОЕ ПРЕДПРИЯТИЕ “РАИОПРЕПАРАТ”**

ХАЖИЕВ ЛАЗИЗБЕК ОЗОДОВИЧ

**РАЗРАБОТКА МЕТОДИК МОНИТОРИНГА КАЧЕСТВА
РАДИОФАРМАЦЕВТИЧЕСКИХ ПРЕПАРАТОВ НА ОСНОВЕ ЙОДА-
125, ЙОДА-131, ЛЮТЕЦИЙ-177 И ИХ ВАЛИДАЦИЯ**

01.04.01 – Приборы и методы экспериментальной физики

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам**

Ташкент – 2023

Тема диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министре высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером B2023.2. PhD/T3553.

Докторская диссертация выполнена в ГП «Радиопрепарат» при Институте ядерной физики Академии наук Республики Узбекистан.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.samdu.uz) и Информационно-образовательном портале «Ziyonet» (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:

Садиков Илхам Исмоилович
доктор технических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Хужаев Сайдахмад
доктор технических наук,
старший научный сотрудник

Бабаев Бахром Нуруллаевич
доктор химических наук, профессор

Ведущая организация:

Институт биоорганической химии имени академика А.С. Садыкова АН РУз

Защита диссертации состоится « ____ » _____ 2023 года в _____ часов на заседании Научного совета DSc.02/30.12.2019.FM/T.33.01 при Институте ядерной физики (Адрес: 100214, г. Ташкент, пос. Улугбек, ИЯФ АН РУз. Тел.: (+99871) 289-31-41; факс: (+99871)289-36-65; e-mail: info@inp.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Института ядерной физики (регистрационный номер _____). Адрес: 100214, г.Ташкент, поселок Улугбек, ИЯФ АН РУз. Тел.: (+99871) 289-31-19).

Автореферат диссертации разослан « ____ » _____ 2023 г.
(протокол рассылки № _____ от _____ 2023 г.).

М.Ю. Ташметов
председатель Научного совета
по присуждению ученых степеней,
д.ф.-м.н., профессор

О. Р. Тожибоев
ученый секретарь Научного совета
по присуждению ученых степеней,
PhD. ф.-м.н., старший научный сотрудник

Э.М.Турсунов
председатель научного семинара при Научном
совете по присуждению ученых степеней,
д.ф.-м.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В настоящее время во всем мире большое внимание уделяется производству радиоактивных препаратов высокой чистоты и изучению их свойств. Развитие современной науки и техники во многом связано с последними достижениями в технологии получения и изучения свойств радиоактивных препаратов высокой чистоты. Поэтому методы получения таких радиоактивных препаратов и изучения их качества требуют постоянного совершенствования. В настоящее время невозможно представить современную диагностику различных заболеваний, особенно в области онкологии без использования радиоизотопов. Современная ядерная медицина отличается разнообразием диагностических и терапевтических методов, которые предоставляют врачу уникальную возможность объективно оценить состояние того или иного органа с помощью радиофармпрепаратов (РФП). Об этом свидетельствует статистический ежегодный рост потребления радиофармпрепаратов в мировой ядерной медицине на 10-15%. На сегодняшний день рынок радиофармацевтических препаратов составляет более 20 млрд. долларов США в год.

В мире на сегодняшний день каждый четвертый пациент, посещающий клиники, направляется на диагностические и терапевтические процедуры с использованием радиофармацевтических препаратов на основе различных радиоактивных нуклидов. К таким важным и актуальным радионуклидам относятся йод-125, йод-131 и лютеций-177. Радиофармацевтические препараты (РФП) на основе этих радионуклидов успешно применяются для лечения различных заболеваний простаты и щитовидной железы. Радионуклидная и радиохимическая чистота РФП определяет эффективность лечения и снижает необоснованное облучение пациента. Также важным фактором при использовании РФП является удельная активность радионуклида, которая определяет количество применяемого РФП для получения необходимой эффективности лечения и высокого разрешения при диагностике. Поэтому разработка методов контроля качества этих радионуклидов и на этой основе определение качества радиофармпрепаратов, а также определение их удельной активности в соответствии с современными требованиями ядерной медицины является актуальной проблемой.

